

**MARKAZIY BANK MONETAR SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR**

Salimov Mironshox Sadirxon o'g'li

Toshkent Moliya Instituti Bank Ishi Va Audit Yo'nalishi

2-Bosqich Magistratura Talabasi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking pul-kredit siyosatini takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish bu borada mavjud bo'lgan asosiy muammolarning mohiyatini ochib berishni taqozo qiladi. Amalga oshirilgan natijalarga asoslangan holda, mavjud muammolarning mohiyatini ko'rib chiqamiz.

1. Markaziy bank diskont siyosatining mavjud emasligi.

Markaziy bank diskont siyosatining mavjud emasligi uning qayta moliyalashtirish siyosatining samaradorlik darajasi past ekanligidan dalolat beradi. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakat milliy daromadining 40 foizdan ortiq qismini berayotgan va aholining asosiy qismi band bo'lgan qishloq xo'jaligini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Mana shunday sharoitda diskont siyosati qishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi bo'lishi mumkin edi.

Bundan tashqari, diskont siyosati respublikamiz tijorat banklariga likvidlilikni oshirish imkonini berar edi. Chunki Markaziy bank moliyaviy yil davomida diskont stavkasini o'zgartirmaydi. Bu esa tijorat banklariga, foiz stavkalarining bozor darajasini o'zgarishidan qat'iy nazar, belgilangan foiz stavkasida kredit olish imkonini beradi. Bundan tashqari, moliyaviy jihatdan qiynalib qolgan tijorat banklariga boshqa tijorat banklari, odatda, kredit bermaydi. Markaziy bank esa trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan moliyaviy nochor banklarga ham kredit olish imkonini beradi.

2. Respublika Markaziy banki lombard operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

Markaziy bank, odatda, lombard operatsiyalari orqali yuqori rentabelli loyihalarni kreditlayotgan tijorat banklariga kreditlar beradi. Ikkinci tomondan esa, lombard kreditlari Markaziy bank daromadlarini oshirish imkonini beradi. Chunki lombard stavkalari odatda diskont stavkalariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir.

3. Markaziy bankning ochiq bozor siyosatini takomillashmaganligi.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, tijorat banklarining balansida qimmatli qog'ozlar miqdorining kichik ekanligi, hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalari emissiyasining cheklanganligi va, umuman, milliy iqtisodiyotda yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarning yetishmasligi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish imkonini bermaydi.

4. Markaziy bankning valyuta siyosatidagi kamchiliklarning mavjudligi.

Milliy valyutaning birja kursi bilan naqd valyutalar savdosi bo'yicha belgilangan tijorat kursi o'rtasida sezilarli farqning mavjudligi, milliy spot kursining likvidlilik darajasining nisbatan pastligi, tijorat banklarining valyuta zahiralarini diversifikatsiya darajasining past ekanligi, rasmiy oltin- valyuta zahiralarining sezilarli qismining Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining balansida ekanligi Markaziy bankning valyuta siyosatini takomillashtirish yo'lidagi asosiy muammolar hisoblanadi.

Respublikamizda bitim valyutasi sifatida yetakchi xorijiy valyutalar-AQSh dollari, yevro, Yaponiya ieni va Buyuk Britaniyaning funt sterlingidan foydalanilmoqda. So'm baholovchi valyuta bo'lmaganligi sababli, biz, baholovchi valyuta sifatida ikkinchi bir xorijiy valyutadan foydalanamiz Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston tijorat banklarini, Markaziy bankini hamda korxonalarini «spot» operatsiyalari ko'lamini jiddiy tarzda jilovlab turadi.

Spot operatsiyalarini amalga oshirish natijasida O'zbekiston tijorat banklarining oladigan foydasi va ko'radigan zararlarining real darajasini aks ettirish imkonining mavjud emasligi tijorat banklarini spot operatsiyalari ko'lamiga salbiy ta'sir qilmoqda.

5. Markaziy bank depozit siyosatining takomillashmaganligi.

Respublikamiz Markaziy banki depozit siyosatidan pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida foydalanish amaliyoti takomillashmagan. Bu holat, avvalo, Davlat byudjeti kassa ijrosining asosiy qismini tijorat banklari tomonidan bajarilishida namoyon bo'lmoqda.

6. Kredit multiplikatorining tebranishi bilan bog'liq bo'lgan uslubiy muammo.